

“NAHJ UL-FARODIS”DA IJTIMOIIY-SIYOSIIY TERMINLAR TIZIMI

Dilnoza ABDUVALIYEVA

Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti, F.f.f.d. (PhD)

a.dilnoza1981@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20677404>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘rta asr turkiy yozma yodgorliklaridan biri — “Nahj ul-farodis” (XIV asr) asarida qo‘llangan ijtimoiy-siyosiy terminlar tizimi kompleks lingvistik tahlil asosida o‘rganildi. Tadqiqot davomida asarning izohli lug‘ati materiallari negizida aniqlangan terminlar mavzuiy-semantik guruhlariga tasniflanib, ularning lingvosemantik va funksional xususiyatlari yoritildi. Xususan, davlat boshqaruvi, huquqiy munosabatlar, ijtimoiy qatlamlar, iqtisodiy hamda harbiy-siyosiy sohalarga oid birliklar alohida tahlil qilindi. Shuningdek, terminlarning etimologik qatlamlari — turkiy, arabiy va forsiy unsurlar o‘zaro qiyosiy jihatdan ko‘rib chiqilib, ularning til tizimidagi o‘rni aniqlashtirildi.

Kalit so‘zlar: “Nahj ul farodis”, ijtimoiy-siyosiy terminlar, terminlar tizimi, lingvosemantika, tarixiy leksikologiya, davlat boshqaruvi, huquqiy terminlar, ijtimoiy qatlam.

Аннотация. В данной статье на основе комплексного лингвистического анализа изучена система социально-политических терминов, используемых в одном из средневековых тюркских письменных памятников – «Нахдж уль-Фародис» (XIV век). В ходе исследования термины, выявленные на основе материалов толкового словаря произведения, классифицированы по тематически-семантическим группам, выделены их лингвистико-семанτικο-функциональные характеристики. В частности, отдельно проанализированы единицы, относящиеся к государственному управлению, правовым отношениям, социальным слоям, экономической и военно-политической сферам. Также в сравнительном порядке рассмотрены этимологические пласты терминов – тюркские, арабские и персидские элементы – и уточнено их место в языковой системе.

Ключевые слова: «Нахдж уль-Фародис», социально-политические термины, система терминов, лингвистико-семантика, историческая лексикология, государственное управление, правовые термины, социальный слой.

Abstract. This article presents a comprehensive linguistic analysis of the system of socio-political terminology used in “Nahj ul-Farodis” (14th century), one of the medieval Turkic written monuments. The study examines terms identified on the basis of the explanatory dictionary of the work, classifying them into thematic and semantic groups and analysing their linguo-semantic and functional characteristics. In particular, terms related to public administration, legal relations, social strata, as well as economic and military-political spheres are analysed separately. Furthermore, the etymological layers of the terminology—Turkic, Arabic, and Persian—are comparatively examined, and their place within the linguistic system is determined.

Keywords: Nahj ul-Farodis, socio-political terminology, terminological system, linguo-semantic, historical lexicology, public administration, legal terminology, social strata.

Ijtimoiy-siyosiy terminlar til leksik tizimining tarixiy taraqqiyotida muhim o‘rin tutuvchi, jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi va siyosiy hayotini bevosita aks ettiruvchi qatlam hisoblanadi. Ushbu terminlarning shakllanishi jamiyat rivojining muayyan

bosqichlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ayniqsa ijtimoiy tengsizlik kuchayib, tabaqalanish jarayoni chuqurlashgan davrlarda ularning faol rivoj topgani kuzatiladi. Chunki aynan shunday tarixiy sharoitda davlat boshqaruvi tizimi murakkablashib, ijtimoiy ierarxiya, huquqiy me‘yorlar hamda iqtisodiy munosabatlarni ifodalash zarurati yuzaga keladi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ijtimoiy-siyosiy terminlar faqat til birliklari sifatida emas, balki tarixiy-madaniy hodisa sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ular orqali muayyan davr jamiyatining siyosiy tashkiloti, boshqaruv tizimi, ijtimoiy qatlamlari va mafkuraviy qarashlari haqida aniq tasavvur hosil qilish mumkin. Ayniqsa, o‘rta asr turkiy yozma yodgorliklari tilida bu qatlamning boy va rang-barangligi alohida e‘tiborni tortadi.

Ijtimoiy-siyosiy terminlarning vujudga kelishi va rivojlanish xususiyatlari Mahmud Koshg‘ariy [2], G.Dyorfer [1], I.Berezin [6], B.Grekov [8], L.Budagov [7], N.Baskakov [5], V.Bartold [4] hamda V.Radlov [10] kabi olimlarning ilmiy ishlarida yoritilgan. Shuningdek, H.Dadaboyev XI–XIV asrlarga oid turkiy yozma yodgorliklar tilidagi ijtimoiy-siyosiy leksikani maxsus tadqiq etgan [9].

XIV asr Xorazm yozma yodgorligi bo‘lgan “Nahj ul-farodis” [3] asari tilida uchraydigan bu kabi terminlar o‘z davrining siyosiy, huquqiy va ijtimoiy tizimini aks ettiruvchi muhim lingvistik materialni tashkil etadi. Mazkur maqolada asarning izohli lug‘ati asosida ajratilgan ijtimoiy-siyosiy terminlar tizimli ravishda tahlil qilinib, ularning mavzuiy-semantik guruhlarini, etimologik qatlamlari hamda lingvosemantik xususiyatlari yoritiladi. Fikrimizcha, “Nahj ul-farodis”dagi ijtimoiy-siyosiy terminlar tizimi o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy tafakkurini ifodalovchi konseptual model sifatida qaralishi lozim.

“Nahj ul-farodis” leksikasida mavjud ijtimoiy-siyosiy terminlar quyidagi mavzuiy-semantik guruhlariga bo‘lib tasniflandi:

1. *Davlat boshqaruvi va hokimiyatni ifodalovchi terminlar.* Asarda davlat boshqaruvi bilan bog‘liq terminlar alohida semantik qatlamni tashkil etib, ular orqali hokimiyat tizimining ichki tuzilishi va ierarxiyasi namoyon bo‘ladi. Xususan, *amir*, *bek*, *beklik* kabi birliklar markaziy va mahalliy boshqaruv institutlarini ifodalovchi asosiy terminlar sifatida qo‘llanadi. Ushbu birliklarning semantik tahlili shuni ko‘rsatadiki, ular nafaqat hokimiyat egasini bildiradi, balki muayyan siyosiy vakolat va ijtimoiy maqomni ham o‘zida mujassam etadi. Masalan, *amir* termini ko‘proq yuqori darajadagi siyosiy hokimiyat vakilini ifodalasa, *bek* nisbatan mahalliy boshqaruv vakilini anglatadi. Bu esa davlat tuzilmasining pog‘onali tizimga ega

bo‘lganini ko‘rsatadi. *Beklik* esa mazkur boshqaruv tizimining institutsional shaklini ifodalab, hokimiyatning hududiy tashkil etilganini bildiradi.

Bundan tashqari, *batriq* so‘zi qabila boshlig‘i ma’nosida qo‘llanib, markazlashmagan boshqaruv elementlari ham mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Bu holat davlat boshqaruvi tizimi bilan an’anaviy qabila tuzilmasi o‘rtasida uzviy aloqalar mavjud bo‘lganini anglatadi.

Alohida e’tiborli jihat shundaki, *elchi* termini asarda ko‘p qatlamli semantik yuklama bilan qo‘llanadi. Bir tomondan, u diplomatik vakil, ya’ni davlatlararo aloqalarni amalga oshiruvchi shaxsni bildiradi. Ikkinchi tomondan esa diniy kontekstda payg‘ambar ma’nosida, ya’ni ilohiy xabarni insonlarga yetkazuvchi shaxs sifatida talqin qilinadi. Bu esa mazkur terminning semantik kengayishi natijasida dunyoviy va diniy mazmunlarning o‘zaro tutashganini ko‘rsatadi. Demak, davlat boshqaruvi bilan bog‘liq terminlar tizimi faqat siyosiy emas, balki diniy-ideologik mazmunni ham o‘zida aks ettiradi.

2. *Huquqiy va siyosiy munosabatlarni ifodalovchi terminlar*. “Nahj ul- farodis” tilida huquqiy va siyosiy munosabatlarni ifodalovchi terminlar jamiyat hayotini tartibga soluvchi muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Jumladan, *ahd* va *ahdnoma* terminlari o‘zaro majburiyat, kelishuv va bitimlarni ifodalab, huquqiy munosabatlarning yozma yoki og‘zaki shaklda mustahkamlanganini ko‘rsatadi.

Ahkom termini esa umumiy qonun-qoidalar majmuyini bildiradi va u jamiyat hayotining turli jabhalarini tartibga soluvchi normativ tizim mavjud bo‘lganini anglatadi. Shu bilan birga, *amr* va *farmon* kabi birliklar hokimiyatning buyruq berish vakolatini ifodalab, markazlashgan boshqaruv tizimining asosiy belgilaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. *Bay’at* tushunchasi alohida semantik ahamiyatga ega bo‘lib, u e’tiqod yuzasidan sadoqat va hokimiyatni tan olish jarayonini ifodalaydi. Bu termin orqali rahnamo va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar mafkuraviy asosga ega bo‘lganini ko‘rish mumkin. *Fatvo* esa diniy-huquqiy qaror sifatida nafaqat diniy hayot, balki ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda ham muhim rol o‘ynagan. Mazkur terminlarning o‘zaro bog‘liqligi o‘rta asr jamiyatida huquqiy va diniy tizimlarning bir-biridan ajralmagan holda faoliyat yuritganini ko‘rsatadi.

3. *Jamiyat tuzilmasi va ijtimoiy qatlamlarni ifodalovchi terminlar*. Asarda jamiyatning ichki tuzilmasini ifodalovchi terminlar orqali ijtimoiy tabaqalanish va ierarxiya aniq namoyon bo‘ladi. *Ahl* va *el* kabi birliklar umumiy jamiyat tushunchasini bildirsa-da, ularning qo‘llanish doirasi keng bo‘lib, ba’zan muayyan hudud yoki siyosiy birlik ma’nosini ham anglatadi.

Ansor termini esa ideologik birlikni bildiruvchi tushuncha sifatida ajralib turadi. U muayyan shaxs yoki g‘oya atrofida birlashgan guruhni anglatib, siyosiy va diniy birlikning muhim ko‘rinishini ifodalaydi. *Ashoyir* va *banu* kabi terminlar esa qabila va urug‘ tizimini aks ettirib, jamiyatning an’anaviy tuzilishini yoritadi.

4. *Iqtisodiy munosabatlarga oid terminlar*. Iqtisodiy hayotni ifodalovchi terminlar asarda davlat tizimi bilan uzviy bog‘liq holda qo‘llanadi. *Baytul-mol* termini davlat xazinasini bildiradi va markazlashgan moliyaviy boshqaruv mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Bu termin orqali davlatning iqtisodiy resurslarni boshqarish tizimi haqida tasavvur hosil qilish mumkin.

Aqcha pul birligi sifatida iqtisodiy munosabatlarning rivojlanganini bildiradi. *Bozor* va *bozirgon* kabi birliklar savdo-sotiq tizimi va iqtisodiy faoliyatni ifodalab, ichki va tashqi savdo aloqalarining mavjudligini ko‘rsatadi. *Daxl* termini esa daromad tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lib, iqtisodiy munosabatlarning tartibga solinganligini anglatadi.

5. *Harbiy-siyosiy terminlar*. Harbiy tizimga oid terminlar davlatning siyosiy qudratini ifodalovchi muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. *Cherig* qo‘shin ma’nosida qo‘llanib, muntazam harbiy tuzilma mavjudligini bildiradi. *Fath* tushunchasi esa g‘alaba va hududiy kengayish bilan bog‘liq bo‘lib, siyosiy hukmronlikni mustahkamlash vositasi sifatida xizmat qilgan. *Asir* va *bulun* kabi terminlar urush natijasida yuzaga keladigan ijtimoiy maqomni ifodalaydi. Bu birliklar orqali harbiy harakatlarning jamiyat tuzilmasiga ko‘rsatgan ta’sirini kuzatish mumkin.

Asardagi ijtimoiy-siyosiy terminlar turli til qatlamlariga mansubligi bilan ajralib turadi. Turkiy birliklar mahalliy ijtimoiy tuzilmani aks ettirsa, arabiy terminlar ko‘proq diniy-huquqiy mazmunga ega. Forsiy qatlam esa ma’muriy va iqtisodiy munosabatlarni ifodalashda faol ishtirok etadi. Shuningdek, terminlar orasida sinonimiya va polisemantiklik hodisalari ham kuzatiladi. Xususan, *elchi* terminining ham diplomatik vakil, ham payg‘ambar ma’nolarida qo‘llanishi uning semantik kengayganini va turli diskurslar kesishgan nuqtada shakllanganini ko‘rsatadi.

Tahlillar natijasida “Nahj ul-farodis” asaridagi ijtimoiy-siyosiy terminlar tizimi murakkab va ko‘p qatlamli tuzilishga ega ekani aniqlandi. Ushbu terminlar orqali o‘rta asr jamiyatining siyosiy, huquqiy va ijtimoiy modeli tiklanadi. Muallif nuqtayi nazariga ko‘ra, mazkur terminlar faqat nominativ birliklar emas, balki o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy tafakkurini ifodalovchi konseptual vositalardir. Ayniqsa, ayrim terminlarning, jumladan *elchining* ko‘p ma’noziligi ushbu leksik qatlamning semantik murakkabligi va funksional kengligini yaqqol ko‘rsatadi. Shu bois “Nahj ul-farodis”



tilidagi ijtimoiy-siyosiy terminlarni o'rganish tarixiy leksikologiya va ijtimoiy tafakkur tarixini tadqiq etishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Doerfer G. Turkische und mongolische Elemente im Neuperzischen. Bd. I-IV.- Wiesbaden, 1963-1975.
2. Девону луғотит турк. Индекс. Тошкент: УзФан, Т. 1. 1960. – 499 б; Т. 2. 1961. – 427 б; Т. 3. 1963. – 465 б.
3. Eckmann J. (ön söz). Nehcü'l-Ferâdis. I. Tıpkıbasım. – Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları, 1956. B. 458.
4. Бартольд В.В. Церемониал при дворе узбекских ханов // Сочинения. Т. П. ч. П. - М.: Наука, 1964.
5. Баскаков Н.А. Титулы и звания в социальной структуре бывшего Хивинского ханства // Советского тюркология, 1989.
6. Березин И.Н. Ханские ярлыки. П:Тарханные ярлыки Тохтамыша, Тимур Кутлука и Саадет Гирея. – Казан, 1851.
7. Будагов Л.З. Сравнительный словарь турецко-тактарских наречий. 1-2. СПб, 1869, 1871.
8. Греков Б.Д., Якубовский А.Ю. Золотая Орде и ее падение. – М. – Л. 1950.
9. Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. – Ташкент, 1991. – С.42-59.
10. Радлов В. Опыт словаря тюркских наречий. I-IV. СПб., 1893, 1911.